

## IDROK ILYUZIYALARI

### **Xudoyberdiyeva Shahlo**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Tibbiyot fakulteti " Davolash ishi " yoʻnalish 24/14- guruh talabasi.

Email; [xudoyberdiyevashahlo612@gmail.com](mailto:xudoyberdiyevashahlo612@gmail.com)

### **Shodiyeva Nodira Normamatovna.**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Pedagogika va texnologik ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Email: [shodiyevan22@gmail.com](mailto:shodiyevan22@gmail.com)

## ANOTATSIYA

Mazkur maqolada idrok illyuziyalari tushunchasi, ularning kelib chiqish sabablari, asosiy turlari va psixologik mexanizmlari yoritilgan. Idrok illyuziyalari inson sezgi aʼzolari orqali olinadigan axborotning miya tomonidan notoʻgʻri talqin qilinishi natijasida yuzaga keladigan hodisa sifatida tahlil qilinadi. Vizual, eshitish va taktil illyuziyalar misolida idrokning subyektivligi koʻrsatib berilgan. Shuningdek, illyuziyalarning kundalik hayot, taʼlim va ilmiy tadqiqotlardagi ahamiyati ochib berilgan.

**Kalit soʻzlar;** idrok, illyuziya, sezgi, vizual illyuziya, psixologiya, ong, persepsiya.

Psixologiya fanida idrok — bu insonning tashqi dunyo haqidagi sezgilari asosida ongli tasavvur hosil qilishi jarayonidir. Ammo har doim ham bizning miyamiz olamni toʻgʻri qabul qilmaydi: baʼzida u “aldanadi”. Shu hodisa idrok illyuziyasi yoki idrokdagi xatolik deb ataladi. Illyuziya (lotincha *illusio* — “aldash”, “tasavvur xatosi”) — bu real mavjud boʻlgan narsa yoki hodisani notoʻgʻri idrok qilishdir. Yaʼni, obyekt bor, lekin biz uni oʻz shakli, hajmi, harakati yoki rangini boshqacharoq koʻramiz. Bu mavzu inson psixologiyasida muhim oʻrin tutadi, chunki u miyamiz qanday ishlashini, idrok va tafakkur qanday bogʻliqligini koʻrsatadi. Idrok Sezgi negizida idrok shakllanadi. Sezgi bizni oʻrab turgan muhitdagi narsa va hodisalarning ayrim xususiyatlarini aks ettirsa, idrok esa xilma-xil xossalarni tartibga solib, birlashtirib ongimizda namoyon etadi, narsa va hodisalarning yaxlit obrazini yaratadi. Idrok sezgiga qaraganda murakkab jarayon. Idrok qilish odamning kasbi, hayot tajribasi, bilimi va ehtiyojiga bogʻliq. Rivojlanish jarayonida kishining idrok qilish qobiliyati takomillashib, saralanib boradi. Narsa va hodisalarni idrok qilish odamning dunyoqarashiga ham bogʻliq: bir xil narsa yoki voqeani ikki kishi bir xil idrok

qilmasligi mumkin. Bolalarda sezish idrok qilishdan ustun turadi. Chunki ularda miyaning ba'zi tuzilmalari to'la shakllanmaganligi sababli narsa va hodisalarning yaxlit obrazini yaratish qobiliyati sustroq. Insonning butun umri mobaynida idrok qilish jarayoni o'zgarib boradi. Idrokning asosiy xususiyati uning yaxlitligidir.

Masalan, minbarda nutq so'zlayotgan odamni idrok qilar ekanmiz, notiqlarning kiyim-boshi, minbarda o'zini tutishi, kimligi, qancha vaqtdan buyon ma'ruza qilayotganligi va qachon tugatishi va hokazolarni umumlashtirib, u odamning ongimizda yaxlit obrazini yaratamiz, ya'ni idrok qilamiz. Biror narsa va hodisani yoki odamlarni idrok qilishda avvalgi tajribamiz muhim ahamiyat kasb etadi, ya'ni tajriba idrok etishni osonlashtiradi. Masalan, biz hayvonot bog'iga borganimizda, avval ko'rmagan hayvon yoki qushlarga sinchkovlik bilan nazar tashlaymiz, ularning barcha xususiyatlarini o'rganib idrok qilamiz. Keyingi gal borganimizda esa ularni idrok qilishimiz ancha osonlashadi. Idrok qilish ehtiyoj, mayl va istaklarga ham uzviy bog'liq. Har qanday idrok saralash bosqichini o'taydi. Masalan, biz o'zimiz uchun ahamiyatsiz bo'lgan narsani idrok qilmaymiz (uni sezib tursakda). Shu o'rinda idrokning individualligini ham alohida ta'kidlab o'tish joiz. Har bir kishi narsalarning o'ziga kerakli xususiyatlarini yoki o'zi tushungan jihatlarini idrok qiladi. Bunda idrokning individual xususiyatlari uning maqsadga yo'naltirilganligi, hissiyligi va barqarorligida o'z aksini topadi. Idrok qilishda kuzatuvchanlikning ahamiyati ham juda katta. Odam o'zi kuzatmagan narsalar, voqealar va hodisalarni idrok qilmaydi. Demak, idrok sezgidan farqli o'laroq, faol va ongli jarayondir. Idrok qilishda inson tafakkuri ham muhim ahamiyatga ega, masalan, tafakkuri buzilgan yoki aqli zaif odamda idrok qilish ham sust bo'ladi. Narsa va hodisalarni sezish kabi, ularni tasavvur qilish ham idrok jarayoni uchun zarur vositalardan biridir. Avvallari idrok qilingan obrazlarni ongimizda jonlantirish, ya'ni qayta tiklash tasavvur deb ataladi. Tasavvur bizning ongimizda to'satdan paydo bo'lishi ham mumkin. Tasavvur o'ta individual bo'lib, odamning shaxsiga bog'liq. Odamning kasb- koriga qarab birovda ko'ruv, boshqalarda esa eshituv a'zolari orqali tasavvur qilish yaxshi rivojlangan bo'ladi. Masalan, rassomlarda ko'ruv tasavvuri kuchli rivojlangan. Ularning ba'zilari avval ko'rgan narsasini fikrida to'laligicha qayta tiklay oladi. Bu hodisaga eydetizm deb ataladi. Bastakorlarda esa eshituv tasavvuri yaxshi rivojlangan bo'ladi. Xuddi shu qobiliyat Bax va Motsartda o'ta kuchli bo'lgan. Idrok buzilishi ayrim asab va ruhiy kasalliklarda kuzatiladi. Bularga gallyutsinatsiyalar, illyuziyalar va psixosensor buzilishlar kiradi. Gallyutsinatsiya deb, aslida bemor oldida mavjud bo'lmagan ob'ekt va hodisalarni idrok qilishga aytiladi. Gallyutsinatsiyalar bosh miya po'stlog'ida inert qo'zg'alishning paydo bo'lishi va uning dominantlik vazifasini bajarib turishi bilan tushuntiriladi. Inert

qo'zg'alish bosh miya po'stlog'ining umumiy tormozlanishi oqibatida yuzaga keladi. Bosh miyada moddalar almashinuvi buzilishi ham gallyutsinatsiyaga olib kelishi mumkin. Ko'rish, eshitish, hid va ta'm bilish hamda umumiy sezgi bilan bog'liq bo'lgan gallyutsinatsiyalar farqlanadi. Gallyutsinatsiyalar soxta tasavvur hisoblanadi. Chunki ular atrof muhitda mavjud bo'lmasa ham bemor xayolida paydo bo'laveradi. Ba'zan bemorga o'zi idrok qilayotgan narsa, hodisalar haqiqatan ham bordek tuyuladi. O'zi ham bunga ishonadi. Gallyutsinatsiyalar shizofreniya kasalligida ko'p kuzatiladi. Nevroz bilan xastalangan va tez-tez affekt holatiga tushib turadigan bemorlarda ham gallyutsinatsiyalar bo'lib turadi. Gallyutsinatsiyalar sog'lom odamda ham kuzatilishi mumkin. Masalan, sahroda adashib qolib bir o'zi ketayotgan odamga suv, qishloq, daraxtzor yoki u tomonga yurib kelayotgan odam ko'rinadi. Ko'ruv gallyutsinatsiyasida bemorning ko'z oldida aslida yo'q bo'lgan narsalar namoyon bo'ladi. Narsalar yo katta (makropsiya), yo kichik, (mikropsiya) bundan tashqari, bu narsalarning shakli ham qiyshiq va noaniq bo'lib ko'rinadi. Gallyutsinatsiyalar nafaqat psixoz yoki nevrozlarda, balki bosh miya po'stlog'ini ta'sirlantiruvchi organik kasalliklarda (masalan, o'smalarda) ham kuzatilib, muhim diagnostik ahamiyatga ega. Eshitish gallyutsinatsiyalari ham turli-tuman bo'ladi. Eshitish gallyutsinatsiyasi deb, aslida yo'q bo'lgan tovushlar (gap, so'z)ning bemor qulog'iga eshutilishiga aytiladi. Tovushlar jarangdor, bo'g'iq, uzoq yoki yaqindan, pastdan yoki tepadan kelgandek bo'lib tuyuladi. Shunga yarasha bemor boshini tovush kelgan tomonga buradi yoki yurib boradi. Verbal gallyutsinatsiyalar, ayniqsa, bemor uchun xavflidir.

Har tomondan keluvchi ovozlari bemorga tahdid soluvchi, buyruq beruvchi tarzda bo'lib, bemorni yurib borayotgan avtomobil tagiga tashlashni, tomdan sakrashni, o'ziga yoki birovga pichoq sanchishni, sevimli farzandini o'ldirishni buyuradi. Bular imperativ gallyutsinatsiyalardir. Bunday ovozlari hadeb takrorlanaversa, bemor uni bajarib qo'yishi mumkin. Bu ovozlari tanish yoki notanish odamning, ayol yoki erkak kishining ovozi sifatida namoyon bo'ladi. Ovozlar bir marta paydo bo'lib, to'xtab ham qoladi. Bemorning qilgan ishlarini ma'qullovchi yoki tanqid qiluvchi ovozlari ham eshutiladi. Taktil gallyutsinatsiyalarda bemor xuddi terisida biror narsa o'rmalab yurgandek ust-boshini qoqaveradi. Hid va ta'm bilish gallyutsinatsiyalarida bemor badbo'y narsalar hidi va ta'mini sezadi. Gipnogogik gallyutsinatsiyalar bemor ko'zini yumib uxlamoqchi bo'lganda kuzatiladi. Bunda uning ko'z oldida har xil qo'rqinchli narsalar, hayvonlar, yomon odamlar paydo bo'ladi. Ko'zini ochsa yo'qoladi. Bu holat qo'rqq bolalarda ko'p uchraydi. ILYUZIYA Illyuziya deb, atrof-muhitda aslida mavjud bo'lgan narsa va hodisalarni yanglish idrok qilishga aytiladi. Demak, gallyutsinatsiyadan farqli o'laroq, illyuziyada

idrok etilayotgan narsalar mavjud, lekin ular noto'g'ri qabul qilinadi. Masalan, erga tushib yotgan qora chopon uzoqdan xuddi uxlab yotgan itdek, do'ppi esa mushukdek, qorong'i xonada mixga ilingan palto xuddi o'g'ri turgandek tuyuladi. Illyuziyalar ham, xuddi gallyutsinatsiyalar singari ko'ruv, eshituv, hid va ta'm bilish turlariga bo'linadi. Illyuziyalar sog'lom odamlarda ham uchrab turadi. Masalan, qurilish bo'layotgan joyda yog'ochlar uzoqdan xuddi egri joylashgandek, eshik va derazalar qiyshiq qo'yilgandek, devordagi chiziqlar egri chizilgandek bo'lib ko'rinadi. Ba'zan, quruvchi bularning to'g'riligini maxsus elektron priborlar yoki dastgohlar orqali tekshirib ko'radi. Illyuziyalar nevroz va psixozlarda ko'p kuzatiladi. Verbal illyuziyalarda bir nechta odamning suhbatini bemor uchun uning ustidan g'iybat qilayotgandek yoki fitna uyushtirish uchun reja tuzilayotgandek eshitiladi. Illyuziyalar shizofreniya kasalligi xuruj qilganda, delirioz va oneyroid holatlar bilan kechuvchi kasalliklarda ko'p kuzatiladi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak Aristotel (Arastu) illyuziyasi haqida ham so'z borgan bo'lib u shunday ma'noni beradi. Masalan, biz ko'rsatkich va o'rta barmoqlarimizni chalishtirib, no'xat yoki bironta dumaloq narsani chalishtirgan holda ikkala barmog'imizning uchi bilan bosib turib, shuningdek ayni bir davrda aylantiraversak, bu holda barmoqlarimizning tagida bitta emas, balki ikkita no'xat bordek his qilamiz. Ana shu holdagi bir narsaning ikkita bo'lib sezilishi Aristotel (Arastu) illyuziyasi deb ataladi. Bu holat sog'lom, normal insonda deyarli shunday kechadi. Uyda qorong'u xonadagi predmetni ko'rish sezgisi noto'g'ri yani to'liq idrok eta olmaganligi sababli xona derzasiga osilgan pardalarni kimningdur sharpasiga o'xshatiladi va shaxsda qo'rquv hissi paydo bo'la boshlaydi, lekin chiroqni yoqish orqali u aslida oddiy parda ekanligini ko'rish retseptori bilan to'liq idrok qilinadi. Bu holat barchada kuzatiladigan holat hisoblanadi, masalan bolalarda esa xonadagi kiyim ilgichda ilinib turgan kiyimlarni qorong'uda ko'rishganida idrokida ijodiy hayolning ta'sirida qo'rqinchli hayvonlarni tasavvur qilib qo'rquv holatini idrok qiladilar bu holat normal insonda ham uchraydi. Ko'rish illyuziyaning patologik turlari: Idrok obyektini ma'lum darajada o'zgarish xususiyatiga ega bo'lgan maxsus ko'rish illyuziyalari Derealizatsion buzulishlar deb nomlanadi. Ularga mikropsiya - atrofdagi predmetlarni hajmi o'lchovini kichiklashish bilan tavsiflanuvchi idrok buzilishi, makropsiya-atrofdagi predmetlarni hajmi o'lchovini kattalashishi bilan tavsiflanuvchi idrok buzilishi, dismegalopsiya - atrofdagi narsa va predmetlarning o'sishi, kengayishi hamda buzilishi bilan tavsiflanuvchi idrok buzilishi va yana bir turi porropsiya deyiladi bunda biron bir obyektning masofasi uzayadi yoki qisqargandek tuyuluvchi idrokning buzulishlari. 1. Idrok illyuziyalari nima uchun yuzaga keladi? Idrok illyuziyalari psixologik, fiziologik va kognitiv sabablar tufayli paydo bo'ladi.

Fiziologik sabablar: koʻz muskullari, qoʻrachi, yorugʻlik va koʻrish markazi oʻrtasidagi noaniqliklar. Psixologik sabablar: eʼtiborning chalgʻishi, avvalgi tajriba yoki taxminning idrokka aralashuvi. Kognitiv sabablar: miyaning obyektning "toʻldirib olish" odati — yaʼni, toʻliq koʻrinmagan narsani miyamiz taxminan yakunlab beradi. Masalan, uzoqda turgan odam kichikroq koʻrinadi, lekin biz u haqiqatan ham kichik emasligini bilamiz. Bu — miya "kontekst" orqali toʻgʻrilaydigan idrok jarayoni. 2. Idrok illyuziyalari turlari a) Vizual (koʻrish) illyuziyalari Eng koʻp uchraydigan tur. Masalan: Myuller-Layer illyuziyasi — bir xil uzunlikdagi chiziqlar turlicha koʻrinadi. Ponzo illyuziyasi — parallel chiziqlar ichida joylashgan obyektlar turlicha kattalikda koʻrinadi. Ebbinghaus illyuziyasi — markazdagi doira atrofdagi doiralar taʼsirida kattaroq yoki kichikroq koʻrinadi. Bu misollar shuni koʻrsatadiki, bizning idrokimiz faqat koʻz emas, balki miya interpretatsiyasi mahsulidir. b) Eshitish illyuziyalari Inson tovush manbaini notoʻgʻri aniqlaydi yoki ovozni boshqacha eshitadi. Masalan, "Yanni yoki Laurel" audiosidagi tovushni kimdir "Yanni", kimdir "Laurel" deb eshitadi — bu miyaning tovush chastotasini qayta ishlashdagi farqdir. c) Harakat illyuziyalari Masalan, kinoda tasvir harakatlanayotgandek tuyuladi, aslida esa bu 24 ta statik kadrlarning tez almashinuvidan iborat. Bu "koʻrish inertsiyasi" deb ataladi. d) Taktil (teriga oid) illyuziyalar Baʼzi odamlar tanasining yoʻq joyida ogʻriq yoki qimirlagandek sezadi (masalan, protezli oyoqda "sezgi" borligi). Bu holat "fantom ogʻriq" deyiladi. 3. Illyuziyalarning psixologik ahamiyati Idrok illyuziyalari psixologiyada idrokning faol jarayon ekanini isbotlaydi. Yaʼni, biz koʻrgan narsamiz — bu faqat tashqi dunyoning inʼikosigina emas, balki miyamizning uni qanday "talqin qilgani"dir. Bu hodisa quyidagilarni oʻrganishda muhim: Reklama psixologiyasi: rang, shakl, kontrast orqali inson eʼtiborini boshqarish. Harbiy va xavfsizlik sohalari: notoʻgʻri idrok xatolari muhim qarorlarga taʼsir qilmasligi kerak. Sanʼat va dizayn: rassomlar va fotografchilar koʻpincha illyuziyani badiiy vosita sifatida ishlatadilar. Masalan, Leonardo da Vinchining asarlarida chuqurlik effekti — bu ham idrok illyuziyasidir. 4. Inson barkamolligida idrokni boshqarish Barkamol inson oʻz sezgilari va tafakkurini tanqidiy tahlil qila oladi. Psixologik treninglar, diqqatni boshqarish mashqlari, vizual fikrlash usullari idrok aniqligini oshiradi. Bu shaxsning toʻgʻri qaror qabul qilish, vaziyatni xolis baholash, manipulyatsiyalarga berilmaslik qobiliyatini mustahkamlaydi.

### **Xulosa**

Idrok illyuziyalari — inson miyasi va ongining murakkab ishlash mexanizmini koʻrsatuvchi hodisadir. Ular bizni "haqiqatni koʻramiz" deb oʻylasak ham, aslida idrokimiz uni qayta talqin qilishini isbotlaydi. Psixologiya bu illyuziyalarni oʻrganish

orqali inson tafakkurining cheksiz imkoniyatlarini, hamda haqiqatni yana da chuqurroq anglash yo‘llarini ochib beradi. Shunday qilib, idrok illyuziyalari — inson tafakkurining kamchiliklari emas, balki uning ijodiy va moslashuvchan tabiati ifodasidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Zimbardo, P., & Gerrig, R. “Psychology and Life.” – New York, 2023.
2. Gregory, R. L. “Eye and Brain: The Psychology of Seeing.” – Oxford University Press, 2024.
3. Psixologiya.uz — “Idrok va uning xatoliklari”, 2025.
4. Kitaev-Smyk, L. “Psixologiya vospriyatiya.” – Moskva, 2023.
5. APA Psychology Portal — “Visual Illusions and Perception Errors”, 2024